

## “SAB’AI SAYYOR” VA “HASHT BIHISHT”DA DILOROM ORAZI

Murtazaev Babanazar Xuramovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Termiz davlat universiteti

[babanazarmurtazayev@gmail.com](mailto:babanazarmurtazayev@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10574520>

**Annotatsiya.** Maqolada Dehlaviy “Hasht bihisht” va Navoiy “Saba’i sayyor” dostonlarida tasvirini topgan kanizak Dilorom timsoli qiyosan tahlil nazaridan o‘tkaziladi. Dilorom obrazining qadimiy ildizlari va uning asta-sekin badiiy adabiyotga ko‘chishi jarayoniga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu obrazning badiiy adabiyotdagi takomili, xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga va aksincha yozma adabiyotdan xalq og‘zaki ijodiga ko‘chishi kabi hodisalarga ham urg‘u berildi.

**Kalit so‘zlar:** Dilorom, obraz, doston, kanizak, og‘zaki ijod, yozma adabiyot, san’at, musiqa, nafosat, qadim, mushtarak, afsona.

### DILOROM'S FAST IN "SAB'AI SAYYOR" AND "HASHT BIHISHT".

**Abstract.** In the article, the image of the concubine Dilorom depicted in Dehlavi's "Hasht Bihisht" and Navoi's "Saba'i Sayyor" epics is analyzed from a comparative point of view. Special attention was paid to the ancient roots of the image of Dilorom and the process of its gradual transfer to fiction. Emphasis was also placed on such phenomena as the improvement of this image in fiction, the transfer from folk oral creation to written literature and vice versa from written literature to folk oral creation.

**Key words:** Dilorom, image, epic, concubine, oral creativity, written literature, art, music, sophistication, ancient, common, legend.

### ПОСТ ДИЛРОМА В «САБАЙ САЙЁР» И «ХАШТ БИХИШТ».

**Аннотация.** В статье со сравнительной точки зрения анализируется образ наложницы Дилором, изображенной в эпосе Дехлави «Хашт Бихишт» и Навои «Сабай Сайёр». Особое внимание уделено древним корням образа Дилоромы и процессу его постепенного переноса в художественную литературу. Акцент был сделан также на таких явлениях, как совершенствование этого образа в художественной литературе, переход от народно-устного творчества к письменной литературе и наоборот от письменной литературы к народно-устному творчеству.

**Ключевые слова:** Дилором, образ, эпос, наложница, устное слово, письменная литература, искусство, музыка, изысканность, древнее, обыденное, легенда.

Dilorom obraz sifatida, umuman kanizak obrazi og‘zaki va yozma adabiyot olamida Bahrom obrazi bilan yonma-yon, teng paydo bo‘lib, birgalikda tarix sahifalaridan mustahkam o‘rin egalladi. Bu obrazlarning og‘zaki adabiyotdan yozma adabiyotga, tasviriy va amaliy san’atga singib dovrug‘i oshdi, turli el va xalqlarning adabiyotidan mustahkam o‘rin egalladi, shu xalqlarning sevimli qahramoni darajasiga ko‘tarildi, umumlashma bir obrazga aylandi va tarixiy asarlardan joy oldi. Dilorom adabiyotda xushovoz xonanda, xushnavoz sozanda, hassos qalb sohibasi, sof muhabbat egasi timsolida tasvirlanib, Zuhra – Venera yulduzi shaklida talqin etiladi. Sayyora Zuhra va changchi Diloromda bog‘lanishlar bor, birinchisi ikkinchisining maydonga

kelishida manba vazifasini o'tadi. Sharqda "Zuhra san'at homiysi, nafosat ramzi", usta bastakor, go'zal sanam deb ta'riflanadi (Mallayev. 1974:28]. Xusrav Dehlaviy (1253–1325) va Alisher Navoiy [1441–1501) g'azaliyotida Zuhra nomiga alohida urg'u berilishini kuzatamiz, chunonchi:

*Zuhra, k-andar pardai seyum setora soxtast,*

*Gohi nola bo setori o' "Sitoe" mezanam*

[Дехлавий, 1975:828].

*Keturgil raz qizin, soqiy, mug'anniy nag'mae tuzgil,*

*Ki, ul ko'ktin keturgay Zuhrani afg'onga mizrobing*

[Навоий,1990:254].

Zuhraning bu sifatleri qadim yunonlarning Apollon (san'at homiysi, yorug'lik va muzalar) xudosi bilan hamohangliklar kasb etadi. Shunday qilib G'arbda Apollon musiqachilar homiysi bo'lsa, bu unvonni Sharqda sozandalar yalovbardori Zuhra qabul qildi. Shuningdek, Zuhra rimliklarning sevgi ma'budasi Veneraga yaqin va hatto yunonlarning nafosat ma'budasi Afrodita bilan o'xshashliklarga ega. Atoqli yunonshunos N.A.Kun (1877–1940) Afroditada Sharqning ta'sirini ko'radi, finikiyaliklarning Astarta ma'budasi sifatleri Afroditaga ko'chgan va Astarta esa vaviloniya (vavil-bobil)liklarning sevgi tangrisi Ishtar (Ashtar-Astar-Astarta – B.M.) dan olingan [Кун,1975:52–58]. Dastlab Afroditani osmon, yomg'ir va dengiz tangrisi sifatida tanishgan, u bu sifatleri bilan O'rta Osiyo xalqlarining suv, ma'murchilik va muhabbat ma'budasi Anaxitaga ("Avesto"da Ardivisura Anaxita-Naxita-Naxit-Nohid–B.M.ta'kid bizniki) mushtarak. "Anaxitani yunonlar Anaitas deb atab, Olimp xudolari qatoriga qo'shganlar"[Сулаймонова,1965:200]. Shu kabi Anaxita qadim zamonlardayoq O'rta Osiyo xudolaridan Mitra – Quyosh tangrisi bilan birga (Artakseriks II davrida, 404–353 yillar) Eron ilohiysi Axura Mazda (Xura Mazda, Xur Mazd, nihoyat Xurmuz, Xurmus–B.M. ta'kid bizniki) qatoriga qabul qilinadi [История УзССР,1955:107]. Shu tariqa Anaxita ko'p asrlar Eronning Axura Mazda va Veretragna – Varaxran xudolari bilan birgalikda xudolar uchligini tashkil etadi va "Avesto"dan mustahkam o'rin egallaydi. Hatto Parsda (Eronning hozirgi Fors ostoni, markazi Sheroz) Anaxitaga atab qurilgan ibodatxona g'oyat mukaddas sanalgan, unda sosoniylar sulolasining Artasher I Papakning bobosi bir paytlar kohin (soston)lik qilgan ekan [История Ирана,1977:107]. Anaxita – Nohid Kushan saltanatida (eradan oldingi I va keyingi IV asrlar) tasviri tangaga muhrlangan ilk mahalliy ilohalardan biri hamdir.

Falak Zuhra (Dilorom) ko'pincha ma'bud Bahrom bilan yonma-yon tasvirlanadi. Ma'bud Bahrom va ma'buda Zuhra bilan yunonlarning Ares (jang xudosi) va Afrodita hamda rimliklarning Mars (urush ilohiysi) va Venera (dastlab yomg'ir, dengiz va so'ngroq, sevgi va nafosat) Ollohlari o'rtasida bexos o'xshashliklar ko'ramiz. O'rta Osiyoda Yunon–Baktriya (312–64 yillar) davlatining vujudga kelishi oqibatida O'rta Osiyo va Yunon madaniyatlarining o'zaro ta'sirlari kuchayadi, ularning yaqinlashuvi tezlashadi. "O'rta Osiyoda grek xudolariga atab ibodatxonalar quriladi, Zevs bilan zardushtiylikning bosh xudosi Axura Mazda, Apollon va Mitra, Afrodita va Anaxita bir-biriga yaqinlashib, hatto qo'shib ketadi" [Маллаев.1976:38] Demak Zuhra, Apollon, Afrodita, Venera, Anaxita, qolaversa, Mars, Mirrix, Bahrom, Ares o'rtasidagi o'xshashliklar g'oyibdan yoki tasodifiy paydo bo'lgan emas ekan. Mars va Venera yunonlarning Ares va Afrodita nomli ma'budalari ta'sirida yuzaga kelib, qadimiy mifologiyaga ko'ra Ares va Afrodita er-xotin ekanlar, Bahrom va Zuhra (Dilorom) o'tmishdanoq chin oshiq-ma'shuqa tarzida tarannum etib

kelinadi. E'tibor bering Ishtar, Astarta, Afrodita, Anaxita va Venera barchasi zamin va ekin, suv va ma'murchilik, bahor va yomg'ir, unum va farovonlik, muhabbat va nafosat, musiqa va san'at tangrilaridir. Ishtar vavilon (vavil–bobil–B.M.)cha, Astarta – finikiycha, Afrodita – yunoncha, Anaxita – Nohid – forscha, Savit – qadimiy turkiycha, Venera – rimcha, Zuhra – arabcha, Cho'lpon – o'zbekcha bo'lib, jami Venera planetasini anglatadi. Navoiy xonanda va sozanda Udiy haqida to'lqinlanib so'zlar ekan uni: "... xushovozliqda Zuhraning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzasi bo'la olur erdi", deb yozadi [Навоий,1991:14].

Uzoq, o'tmishda Zuhrani Nohid deb atashgan va uni shu xilda yuritish odat tusini olgan. Buning izlari keyingi asrlar she'riyatida uchraydi, goho Dehlaviy Zuhrani ko'hna atamasi Nohid shaqlida tilga oladi:

*Kard Bahrom bo hazor umed,*

*Choma kofurfom chun Nohid* [Деҳлавий, 1972: 401]

Alisher Navoiy ham ba'zan Zuhrani qadimiy nomi Nohid tarzida qo'llaydi:

*Oncha faryod etti mutriblar Navoiy nazmidin,*

*Kim, Utorid she'ridin charx uzra Nohid etmagay* [Навоий,1989:455].

Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy dostonlari mavzuida "Haft axtar" asarini yaratgan Abdibek Sheroziy (1515–1580) kanizakni Nohid nomi bilan ataydi, ya'ni Ozoda, Fitna yoki Dilorom emas, balki:

*Dilbari bud nomi o' Nohid,*

*Bud oinai raxshi xurshid* [Шерозий, 1973:58].

Husayn Zamiriy (XVI ASR) bo'lsa o'z dostonini hatto "Bahrom va Nohid" deb nomladi, Tojikiston, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston va Eronda hozirda ham qizlarga Anaxita va Nohid ismlari berilishi hollari uchrab turadi, yana Eron xotin-qizlar majallasi "Nohid"dir. Shunday qilib samoviy ma'bud Zuhra sifatleri zamin sanami – Diloromga ko'chdi:

*Tund sendin sepehr Bahromi,*

*Changzan Zuhraning Diloromi* [Навоий,1992:7].

Ma'buda Zuhra, inson Zuhraga, keyinchalik Diloromga yaqinlashdi, "Zuhra sayyoradan Zuhra – insonga" aylandi [Маллаев.1976:123]. Shu tariqa avvaliga suv va ma'murchilik, yer va unum ma'budasi – Anaxita, keyinchalik muhabbat va nafosat tangrisi Nohid, nihoyat musiqachilar yalovbardori Zuhra tarzida talqin etila boshladi.

Alisher Navoiy Zuhra timsolida turli cholg'ularni xonishga keltiruvchi buyuk san'atkorni ko'radi:

*Navoiy Zuhra udin motamim tutqonda kuydurdi,*

*Falak sari ermish borg'on uchqunlar fig'onimg'a*

[Навоий, 1987:68].

*Zuhra holimg'a surudin navhag'a aylab badal,*

*Changining sochin yoyib, durri sirishk izhor etar*

[Навоий,1989:120].

Samoviy – Zuhra go'zallik va sevgi ramzi, musiqa va san'at homiysi sifatleri Diloromga ko'chdi, falak Zuhrasi inson Zuhraga, u esa Diloromga aylandi. Shu bois Dilorom tasviri hamisha musiqa bilan hamnafas tasvirlanadi, u mohir sozanda, lohar kuychi, shirali ovoz sohibasi. Ba'zi

ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Go'ring changchi ma'shuqasi Dilorom musiqada "Duyak" usulini ijod etgan, mazkur afsonalar qadimgi gruzin, arman, eron "Voqeanoma"larida bor. Bahrom ov qilganda Dilorom soz chalib, sevimli yorini ovga rag'batlantirar ekan, Dilorom Yaqin va O'rta Sharq folklorida, yozma adabiyotida shu qadar mashhurki, u haqda hatto shaxmat (shatranj, satrang) o'yini bog'liq rivoyatlar paydo bo'ldi. "Dilorom moti" nomi bilan yuritiluvchi ajoyib shaxmat etyudida bir vazir (ba'zi rivoyatlarda Bahrom Go'r) zo'r shaxmatchi bilan dona surib boyligini boy beradi va nihoyat go'zal xotini Diloromni o'yinga tikadi. O'yin oxirida vazir og'ir ahvolga tushib qoladi, vaziyatni ko'rgan Dilorom eriga oson yo'l bilan g'alabaga borish yo'lini qo'shiq orqali ifoda etadi va vazir zafar quchadi [Александрович,1986:15].

Dilorom davrma-davr qator qissalarning markaziy figurasiga aylanib bordi, qolversa Bahrom va Dilorom hikoyati mundarijasiga yaqin turuvchi talay qissa va hikoyalar maydonga keldi. "Shahzoda Muslim va Malikai Hazorgesu" shunday hikoyatlardan, bir kuni shahzoda Muslim ovga kanizak Hazorgesu bilan birga chiqadi va sendagi jami martaba, davlat men tufayli, deb kanizakka minnat qiladi. Shohning ta'nasi kanizakka yoqmaydi, u shahzodani tark etadi va xorkash cholning kulbai g'aribxonasida panoh topadi. Xorkash chol va kanizak oltin konini topadi, shahar chetida muhtasham qasr barpo etadi, ular qasrga Muslimni taklif qiladi, shahzoda kanizakni taniydi va hokazo [Жомеъ-ул-хикоёт,1981:270–297]. Yuqoridagiga mushtarak voqealar Abdulla Hotifiy(1453–1520)ning "Haft manzar"ida ham aynan shu xilda kechadi. Ana shu xil an'anaviy tanish syujet asosida paydo bo'lgan "Bahrom va Zuhra", "Hikoyati Malikai Olamoro va shahzoda Sanjar" hikoyatlarining voqealari ma'nodosh va bir-birini takrorlaydi. Bu hikoyatlarda Zuhra va Olamorolar Hazorgesu monand baxtlari yo'lida kurashadilar, pirovardda murod-maqсадlariga erishadilar [Салимов.1971:76]. Bu jihatdan "Qissai Bahromi Go'ru kanizaki o' Dilorom" qissasi xarakterli, nomlar an'anaviy bo'lsa-da, voqealar an'anaviy mavzudan yiroq. Qissaga Bahrom va Dilorom haqidagi qator hikoyatlarning har xil ko'rinishlari sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi [Жомеъ-ул-хикоёт.1985:183–192]. Dilorom obraz sifatida Bahrom singari g'oyat murakkab yo'lni bosib o'tdi, Bahrom haqida sanab o'tilgan barcha asarlarda Dilorom siymosi beriladi, faqat kanizak nomlari turlicha: Ozoda, Fitna, Dilorom, Gulandom, Oshub, Nohid, kanizak nomi qissa va rivoyatlarda ham turli xil: Hazorgezu, Zuhra, Olamoroy va hokazo. Yozma adabiyotda bu obrazga birinchi Abulqosim Firdavsiy (932–1020) murojaat qildi, "Shohnoma"dagi "Gunohkor Yazdigurd podsholigi" dostonida Bahromning Ozoda ismli sevimli kanizagi obrazi beriladi. Firdavsiy Ozodaga o'rin ajratadi va uni qisqa misralarda ifodalaydi, Ozoda obrazi keyingi asrlarda yozma adabiyotda paydo bo'lgan jami kanizaqlar obrazi uchun zamin hozirladi. Nizomiy Ganjaviy (1141–1209)ning "Haft paykar"ida Fitna obrazi beriladi, ov payti kanizak javobi shohga yoqmaydi, shoh kanizakni qatl etish uchun Sarhang (lashkarboshi) ixtiyoriga topshiradi. Fitna tadbirkorligi tufayli omon qoladi, shoh va kanizak qayta uchrashadi, shunday qilib kanizak obrazi yozma adabiyotda inkishof topa bordi.

Alisher Navoiy va Xusrav Dehlaviy Diloromining obraz sifatida tadriji olis zamonlarda ibtido topgan. Har ikki doston qoliplovchi hikoyasida Dilorom obrazi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har ikki daho shoirning kanizak obraziga munosabati aytarlik bir xil. Dilorom ishqda sadoqatli, ishda farosatli, husnda yagona, musiqada barkamol, xonandalikda tanho va tengsiz sanam ko'rinishida tarannum etiladi. Daho shoirlar Dilorom obraziga o'zlariga xos uslubda jilo berishadi:

*Aslash az Chinu rux chu lsh' bati Chin,  
Gesuyash chun savodi Chin mushkin.  
Baski kardi ba har dile orom,  
Ba diloromiyash baromada nom.  
Didanash, k-az saloh duriy dod,  
Sinaro dog' i nosaburiy dod [Дехлавий,1972:257].  
Yuzi gulzoru iki lab anda,  
Ikki gulbargi bal' ajab anda.  
Har biri to 'la shirai jondin,  
Ezilib shira obi hayvondin.  
Kimki, oni shakarfishon topibon,  
Nechakim, o 'lgan ersa, jon topibon [Навоий,1992:95].*

Har ikki qoliplovchi hikoyatda ov mojarosidan keyingi voqealar tizmasida Dilorom sarguzashti yetakchilik qiladi, kanizak hodisalar markazida turadi. Kanizaqlar Bahromdan og'ir merganlik san'atini namoyish etishni (Firdavsiy va Nizomiy hikoyatlari kabi, faqat shartlar va uning ijrosi turlicha) so'radilar:

*Simbar ham ba ruxsati shohiy,  
Guft, k- "In xohish, ar zi man xohiy,  
Novake zan bar ohui soda,  
Ki shavad moda nar, narash moda" [Дехлавий,1972:262].*

*Ki: "Burun sol iki qo'lig'a shokol,  
Uylakim, turg'ay o'z erida g'azol.  
So'ngra otmoqqa yaxshi ko'zla ani,  
Ham yiroqtin turub bo'g'uzla ani" (Навоий,1992:108).*

Bahrom bu shartlarni qoyilmaqom bajarsa-da, kanizaklar shohning merganlik mahoratini jo'ngina baholashadi, bundan so'zsiz shoh larzaga keladi, g'azabi jo'shadi, jahli avjga minadi. Dehlaviy Bahromi Diloromni kimsasiz dashtga tashlab ketsa, Navoiy Bahromi Diloromning qo'l-oyog'ini o'z sochlariga chandib dahshatli biyobonda qoldiradi:

*Shah shudu nozanin ba ranch bimond,  
Ajdaho barguzashtu ganj bimond [Дехлавий,1972: 263]  
Ikki gisusidin kamand aylab,  
Tashladilar g'ulg'ula band aylab [Навоий,1992:110].*

Kanizaqlarning og'ir va mashaqqatli sarguzashtlari boshlanadi, Diloromlar sevgilisi Bahrom tomonidan taptalgan, mungli kanizak, yoridan ajralgan dilpora ma'shuqalar. Bahromning shuncha jabr-zulmlariga qaramasdan Diloromlar uni jondan ortiq sevadi, uning qiynoqu azoblariga bardosh beradi va hamisha Bahrom andishasi bilan yashaydilar. Kanizaqlar o'zlarining haqligini isbotlash va muhimi Bahromlarni uyqusidan uyg'otish istagida yonadilar. Diloromlarda murakkab tomonlar ham bor, bular o'zlarini kiynoqqa solgan Bahromni tezgina kechirishda, unga xayrixohlik bildirishlarda ko'rinadi. Ov mojarosidan so'ng Navoiy Diloromi uzoq Xorazmga borib qolsa, Dehlaviy Diloromi o'sha atrofdagi Dehqon (qadimda katta yer egasi) xonadonida panoh topadi. Dilorom Dehqon bilan ota-bola tutinadi, undan musiqa sirlarini bilib oladi, barbat chalishni

o'rganadi. Dehqon qizining barbat chalishdagi shuhrati chor atrofga yoyiladi, bu ovoza saroy gacha yetib boradi. Bahrom mo'jizani ko'rish ishtiyoqida o'sha qishloq sari yo'l oladi. Dehqon qizi yuziga chimmat tutgan holda (Nizomiy Fitnasi ham yuziga parda tutib Bahromga o'z hunarini namoyish etadi) barbat chaladi va mahoratini ko'z-ko'z qiladi. Barbat (o'rdak shaqlidagi cholg'u)ning dilkash va o'ynoqi, nozik va mayin sadosi tinglovchilarni sarxush etadi, ularni hayajonga soladi, allalaydi va elitadi, hatto o'rmon hayvonlari ham o'lib, ham tirila boshlaydi. Navoiy Diloromi Xorazmda shoh va arkoni davlatni bir necha bor musiqa ila sehrlaydi. Diloromning bu sifatleri bexos Apollonni xotirga tushirdi, "Apollon yaylovda nay yoki oltin kifarasini chalganda, sehriga mahliyo yovvoyi hayvonlar o'rmondan chiqib kelishar ekan" [Кун, 1975:34]. Navoiy kanizak sarguzashtini qoliplovchi hikoya doirasida cheklab qu'ymay, Dilorom voqealarini dostonning oxirgi – yettinchi hikoyasiga ko'chiradi. Navoiy bu bilan bir tomondan Dilorom taqdirini sirli qoldiradi (qoliplovchi hikoyat uchun) va ikkinchi bir tomondan kitobxonni voqealar yechimigacha (yettinchi hikoyat mazmuni bilan) hayajonda tutadi.

Har ikki Dilorom chin muhabbat sohibasi, ular musaffo va iffatli, sodiq yor va jafokash ayol. Navoiy Diloromdagi chin ma'shuqa va sadoqatli mahbuba sifatlarini jonli buyoqlarda berish niyatida yettinchi hikoyat syujeti halqasiga Dilorom va Xorazm shohi voqealarini ilova qiladi. Dehlaviy Diloromdagi xususiyatlarni ravshanroq tasvirlash istagida Diloromning chang ijrosida mohir bo'la turib yana barbat chalish (to'g'ri boshqa musiqa asbobi)ni Dehqondan yod olgani epizodlarini ilova etadi. Navoiy Diloromi ham bu sohada betakror, hatto Kofur unga musiqa ilmida shogirdlikka tushadi. Kofur Xorazm mulkida o'z surudi va rudi bilan mashhur xonanda, elga manzur sozanda, ko'plab shogirdlarning ustodi yaktosi. Lekin u Dilorom san'ati oldida ojiz, shu bois e'tiqod ila Diloromga shogirdlikka tushadi. Sababi Dilorom san'atining sehri Xorazm xalqining mehrini kozonadi va Kofurning musiqachilik ishi kasodga yuz tutadi. Kofur Diloromdan kuy sehri va musiqa sirlaridan ta'lim oladi, demak Dilorom musiqa bobida – ustoz shoyista. Dilorom kuy ijro etganda, uning mungli ohangi mungli sarguzashtlarga ishora etishini Kofur bexos sezib qoladi. Dilorom qo'lga soz olsa, pardalar mungli ingraydi, chang simlari fig'on chekadi, Dilorom o'z dardi, o'z xasratli sarguzashtini kuyga solgan bo'ladi va tinglovchini o'z g'amiga sherik, o'z dardardiga hamdard qiladi.

Har ikki Diloromda farq qiluvchi tomonlar bor, hind Diloromi Bahromga qisman ta'nadashnom toshlarini otadi, buni Navoiy Diloromida ko'rmaymiz. Navoiy Diloromi va Bahromni saroy a'yonlari bilan botqoq yutsa, Dehlaviy Bahromining o'zi halok bo'ladi va Dilorom taqdiri (kanizak qismati Nizomiyda ham shunday) noma'lum qolib ketadi, umuman ko'p mualliflarda kanizakning keyingi taqdiri negadir sirli qoldiriladi. Diloromlarda muhit ila murosaga kelishish kayfiyati ustun, chunonchi ularning kurashi bir qadar o'tkinchi xarakter kasb etadi. Diloromlarda mushtiparlik, ojizlik ustun, bu feodal jaholati, zulmat qabohati bilan bog'lanadi. Ularning erksizligi, ularning ojizligi bu zamona erksizligi, feodal muhiti ojizligidir.

"Hasht bihisht"ning an'anaviy muqaddimotlarini mustasno etganda "Og'oz dostoni "Hasht bihisht" sarlavhasi bilan boshlanib, shundan so'ng birdan "Dar sifati Diloromi changiy" bobi bilan boshlanadi, bu bo'limda Dilorom ta'rif-tavsifi beriladi. Xuddi shu xil hodisa "Sab'ai sayyor"ning o'n uchinchi bobida beriladi va ushbu bob to'lig'cha Dilorom vasfiga taalluqlidir. Har ikki shoir Diloromlarni bor go'zalligi, tamom tarovati bilan vasf etadi, ushbu ta'riflar o'ziga xos jaranglaydi. Dehlaviy va Navoiy kanizaklarni ta'riflashda mahorat bilan turli badiiy buyoqlarni

qo‘llaydilar. Tug‘ri ta‘rifu tavsiflarda an‘anaviy badiiy mushtarakliklar, hamohangliklar mavjud, zero busiz mumkin ham emas edi. Chunki an‘anaviy badiiy sifatlar Sharq adabiyotida bir xillikka ega va bundan voz kechishning yoki chekinishning sira iloji yo‘qdir. Shu jihatdan Dilorom vasfidagi boblarda o‘xshashliklar tabiiylik kasb etadi. Masalan har ikki Dilorom bemonand sozanda, ular barbat va changni xonishga solganda atrof larzaga tushadi, tinglovchi qalbini zabt etadi, uning borlig‘ini cho‘lg‘aydi. Navoiy Diloromning jamolini tovusga, nag‘mapardozligini bulbulga, ovozxonligini Qaqnusga qiyoslaydi. Shoir afsonaviy qush Qaqnus vositasida Diloromning xushovozi va xushsozi, umuman kanizakning musiqa va ovozxonlik bobidagi iste‘dod qirralarini ko‘z-ko‘z qilishga erishadi. Qaqnus – afsonaviy qush, maskani Hind mulki ekan, uning tumshug‘idagi uch yuzi oltmish teshikdan turli so‘lim ovozlari chiqar ekan. Bu xushrang va xushovoz qush ming yil umr ko‘rar va oxir umrida o‘tda kuyib ular emish.

Basharti Dexlaviy va Navoiyning Dilorom ta‘rifiga bag‘ishlagan o‘rinlarni yonma-yon qo‘yib taqqoslaydigan bo‘lsak, ushbu manzara namoyon bo‘ladi. Zero biz bu masalalarga yuqorida keng o‘rin ajratgan bo‘lsak-da, ma‘lum aniqliklar kiritish niyatida qayta qiyosga qaytishga jazm etdik. Rost bunda biz faqat shu bo‘limlarning mazmuniy xalqasiga e‘tiborni kuchaytirishni shart qilib oldik. Chunki Dehlaviyning boshda zikr etilgan bo‘limidan so‘ng: “Sifati tirandozii Bahrom va xashm giriftan ba on Dilorom” [Дехлавий,1972:261] bo‘limi boshlanadi va birdan bizga tanish ov epizodi beriladi. Shundan so‘ng Diloromning cho‘lga tashlab ketilishi hikoya qilinadi, Dilorom parishon, ahvoli zabun, bo‘lgan voqealarga hayron, shomgacha sahroda tanho qolib ketadi, ilojsiz, imkonsiz, ming azobu uqubat ila o‘zida kuch yig‘ib joyidan jiladi:

*Mond be xeshtan sanam, to der*

*Tashnai g‘arqi obu az jon ser.*

*Pas ba sad xastagi zi jo barxost,*

*Rohi sahro giriftu meshud rost* [Дехлавий,1972:263]

Shu tariqa Diloromning Dehqon xonadonida bo‘lishi voqealariga o‘tiladi, jahon kezgan Dehqon, ko‘p narsalarni sezgan, hayotdan negadir bezgan bir shaxs sifatida beriladi. U barbat chalishda yagona, ammo zamona ziddiyatlari, murakkabliklari uni o‘z iskanjasiga olgan ekan. So‘nggi sahifalarda Bahrom va Diloromning yana topishuvi, kanizakning saroyga kaytishi naql qilinadi.

Navoiyda esa o‘zgacha manzarani ko‘ramiz, Dilorom cho‘lda qoldirilgach, oradan uch kun o‘tgach, Bahrom uni izlab topolmaydi. Hamma hodisalar, jami voqealar sirli, sehrli kechadi, Bahrom o‘z Diloromi hajrida xastalanadi, uning daragini topmaydi. Voqealar o‘ta o‘tkir tus oladi, shoh o‘z qilmishidan pushaymon, Dehlaviy Bahromida bular kurinmaydi, albatta. Ana shu nuqtadan boshlab, “Sab‘ai sayyor”ning “Hasht bihisht”dan tubdan farqlari oydinlashib boradi. “Sab‘ai sayyor” voqealari yechimi yettinchi hikoyatga boribgina hal bo‘ladi. “Hasht bihisht”ning xotimaviy bo‘limlarida ham kanizak haqida gap ketmaganidek, “Sab‘ai sayyor” oxirgi boblarda ham kanizak shoh ila hamnafas, qamarbasta. Navoiy kanizak taqdiri masalasida tamoman yangicha yo‘l tutadi, kitobxonni o‘yga cho‘mdiradi, kitobxon Dilorom qismatini o‘ylab tashvishta tushadi. Ana shu jihatlari bilan “Sab‘ai sayyor” hatto “Hasht bihisht” va “Haft paykar”ga ko‘p tomonlama kuchli raqobat bildira oladigan darajada ekanligini baralla aytish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Navoiy Dilorom voqeasi bilan jamiki doston voqealarini, ya‘ni qoliplovchi va ettinchi hikoyatlar uzviyligini o‘rinli bog‘lab, bu sohada

chinakamiga o'z san'atini namoyish eta olgan. Sababi Navoiy kanizak taqdirini oqibatsiz qoldirmagan holda, uni umumdoston mazmunining bosh ishtirokchisi darajasiga ko'taradi. Navoiy kanizak siymosini, uning sarguzashtlarini atigi ana'anaviy ov lavhasi uchungina zarur deb bilmadi, balki uni voqealarning qizg'in jabhalariga aralashtiradi, unga yetakchi ruh baxsh eta bildi. Navoiy bu sohada salaflarini chinakamiga to'ldirdi, mukammallashtirdi, izchillashtirdi, chinakamiga Nizomiy va Dehlaviyga raqobat bildira oldi. Shuningdek Navoiy kanizak siymosini Bahrom tafsilotlarini to'ldirishda xizmat ettirdi, hodisalarning maroqli tomonlarini barqarorlashtirishda aynan kanizak obrazidan unumli foydalandi, qoliplovchi hikoyatni teran va tugal bir holatga keltirdi.

Navoiy Darhaqiqat Dilorom obrazini qoliplovchi hikoyatning birinchi rejasiga olib chiqdi va uni Bahrom obrazi mavqei bilan tenglashtiradi. "Sab'ai sayyor"da Dilorom va Bahromning sevgi va o'zaro bog'lanish tarixi tafsilotlariga keng o'rin ajratiladi. Bularning barchasi Bahrom va Dilorom sevgi rivoyatiga alohida e'tibor berish hamda ushbu muhabbat voqeasini dostonning asosiy g'oyaviy yo'nalishiga olib chiqish bilan izohlanadi. Navoiy kanizak sarguzashtini tafsilotlar bilan boyitadi va bu boradagi ko'plab mavhumliklarni bartaraf eta bildi.

#### REFERENCES

1. Александрович Г., Столяр Е. Диларам, Анастасия, Нона... // Бюллетен Ленинградского шахматного клуба им М.И. Чигорина. –1986. – 17 сент.
2. Амир Хусрави Деҳлавий. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди дуюм. Ойинаи Искандарий ва Ҳашт биҳишт. – Душанбе: “Ирфон”, 1972. – 444 с.
3. Девони Амир Хусрав Деҳлавӣ. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди чаҳорум. Ғазалиёт, қасоид, муқаттаот, рубоӣёт. – Душанбе: “Ирфон”, 1975. –896 саҳ.
4. Жомеъ-ул-ҳикоёт. Жилди 2. – Душанбе: Ирфон, 1981. – 448 с.
5. Жомеъ-ул-ҳикоёт. Жилди 3. – Душанбе: Ирфон, 1985. – 400 с.
6. История Ирана. – Москва: МГУ, 1977. – 488 с.
7. История Узбекской ССР. Т. II. Книга первая. –Ташкент: АН УзССР, 1955. – 544 с.
8. Кун Н.А. Легенды и мифы древней Греции. 5-е изд. – М.: Просвещение, 1975. – 463 с.
9. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 384 б.
10. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Қайта ишланган 3-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 664 б.
11. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. I – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
12. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. 3. – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
13. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. 4. – Тошкент: Фан, 1989. – 560 б.
14. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. 6. – Тошкент: Фан, 1990. – 568 б.
15. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. 10. – Тошкент: Фан, 1992. – 448 б.
16. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. 15. – Тошкент: Фан, 1999. – 236 б. (Электрон)
17. Салимов Ю. Насри ривоятии форсу тожик. – Душанбе: Дониш, 1971. – 156 с.
18. Сулаймонова Ф. “Муғ дайри...” // Шарқ юлдузи. – 1965. – № 5. – Б. 199–201.
19. Шерозий Абдибек. Ҳафт ахтар. Тартиб ва матн ва муқаддима аз Абулфазл Ҳошим ўғли Раҳимов. – Москва: Идораи интишоороти “Дониш”, 1973. – 249 с.